

**BIZ NIMA UCHUN INGLIZ TILINI O'RGANAMIZ?***Zulfiqorova Habiba Shamsiddinovna**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tili xalqaro tilga aylanish sabablari va o'rganuvchilar sonining kengayishi, o'rganuvchilarda ingliz tili bilan bog'lik maqsadlarning paydo bo'lishi, til bilgan insonlarda imkoniyatlar mavjudligi va chet tillarini o'rganishni ommalashtirish uchun qilinayotgan sa'y-harakatlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: ilm-fan, ingliz tili, globallashuv, Sharq allomalari, ta'lim tizimi, IELTS, CEFR, El-yurt umidi jamg'armasi, muloqot, madaniy integratsiya, CV, zamonaviy mutaxassis.

Abstract: This article highlights the reasons for English becoming an international language and the expansion of the number of learners. It also discusses the emergence of English-related goals among learners, the opportunities available to those who know the language, and the efforts being made to popularize foreign language learning.

Keywords: science, English language, globalization, Eastern scholars, education system, IELTS, CEFR, El-yurt Umidi Foundation, communication, cultural integration, CV, modern specialist.

Аннотация: В данной статье освещаются причины становления английского языка международным и расширение числа учащихся. Рассматриваются вопросы возникновения целей, связанных с изучением английского языка, возможности, открывающиеся перед людьми, владеющими языком, а также усилия, предпринимаемые для популяризации изучения иностранных языков.

Ключевые слова: наука, английский язык, глобализация, восточные мыслители, система образования, IELTS, CEFR, фонд «Эл-юрт умиди», общение, культурная интеграция, CV (резюме), современный специалист.

Inson yaralibdiki, doimo izlanishda, o'rganish bilan mashg'ul. Chunki uning tomirida faqatgina qon emas, ishtiyoq, qiziqish ham jo'sh urib oqmoqda. Shu ishtiyoq, shu qiziquvchanlik insonni okean kechishga, tog' oshishga majbur qildi, qorong'u g'orlardan yorug' shahrlargacha yetakladi. Tarix sahifalariga nazar tashlar ekanmiz, u dastlab oddiy jarayonlar yoki narsalarni o'rgandi: tunda osmonda yulduzlarning paydo bo'lishini, mehnat qurollarining yasashini va shu kabilar. “Vaqt - oliy hakam”,- deganlaridek, yillar birin-ketin sanog'ini sanayvergandan so'ng matematika, tibbiyot, astronomiya, adabiyot kabi turli xil sohalarni o'rganib, muloqot va til degan tushunchalar bilan ham tanishishni boshladi hamda yangi tillar bilan tanishib, uning vakillari bilan muloqotga kirishdi. Bunga yaqqol misol sifatida tariximizda o'chmas iz qoldirgan Sharq allomalaridan Abu Nasr Forobiy 70



ta tilni, Abu Ali ibn Sino arab va fors tillarini, Abu Rayhon Beruniy arab, fors, yunon, ibroniy, suryoniy va sanskrit tillarini mukammal bilgan. Bugungi kunda ularning izdoshlari, ya'ni yangi asr yoshlari esa jahon tiliga aylanib borayotgan ingliz tilini o'rganishga bel bog'lagan.

Bugungi globallashuv davrida ingliz tili jahon tiliga aylanib, xalqaro muloqot, fan-texnika, biznes va internet, diplomatik aloqalar kabi sohalarning tayanchi sifatida xizmat qilmoqda. Bugungi taqdiqodlar shuni ko'rsatadiki; ingliz tilida so'zlashuvchilarning soni yildan yilga ortib bormoqda ularning soni taxminan 1,5 milliardga yetgan. Dunyo bo'ylab 53 ta davlatning rasmiy davlat tili hisoblanadi.

Dono xalqimiz: “Har bir ishning ortida bir manfaat bor”, -deb bejizga ta'kidlamagan. Chunki chet tilini o'rganayotgan har bir ilmi tolibning fikr-u xayolini til bilan bog'liq qandaydir maqsadlar chulg'ab olgan. Masalan, birinchi toifa vakillari bu masalani ta'limga bog'laydi, negaki ta'lim deb javob berayotganlarning ham yetarlicha asoslari va sabablari bor. Barchamiz bilamizki, yurtimizda chet tilini biladiganlar doim qo'llab- quvvatlanib, qadrlanadi, shuning uchun ta'lim sohamizning har bir bosqichini, ayniqsa oliy ta'limni ingliz tili bilan chambarchas olib borish siyosati yuritilmoqda. Bunga yaqqol misol sifatida 2021-yil 6-may kunida chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning har bir maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari kamida 2 ta tilni mustaqil bilish kerak degan gaplarini keltira olamiz. Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi tuzildi. Bugungi kunga kelib Ta'lim va ziriiliga va agentlik hamkorligida bakalavrning ma'lum bir yo'nalishlariga, magistraturaga, doktoranturaga kiruvchilar uchun chet tili bo'yicha xalqaro yoki milliy sertifikatga ega bo'lish talabi kiritildi. Bu esa yoshlarimizga ham til o'rganish imkoniyati va davr hamda davlat talabidir.

Yurtimizda ham xorijiy til o'rganishni ommalashtirish sa'y harakatlari olib borilmoqda. Yurtboshimizning qarorlariga ko'ra xorijiy til maktablari tashkil etish, yurtimizning barcha hududlarini chet tili mutaxassislari bilan ta'minlash, yoshlar orasida ingliz, rus, fransuz, nemis, italyan, ispan tillariga qiziqishlarini oshirish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilandi. Shu sabali yurtimizda IELTS (International English Language Test System- xalqaro ingliz tilini baholash tizimi) va CEFR (Common European Framework of Reference for Language – Tillar uchun Umumyevropa baholash mezonlari) kabi til bilish darajasini aniqlash testlari o'tkazilmoqda va yoshlarimiz o'z bilimlari va til bilish imkoniyatlarini ishga solib, yaxshi natijalar ko'rsatib, o'z sertifikatlariga ega bo'lmoqda.

Dunyodagi eng yaxshi oliygohlar, o'quv kurslari va qo'llanmalari, onlayn kurslar ingliz tilida. Shu sabali yoshlarimiz ingliz tilini o'rganish bilan mashg'ul. Ular bilishadiki, har bir talaba o'qishni orzu qiladigan MIT (Massachusetts texnologiya institute), Harvard, Oxford kabi universitetlar programmalari, ta'lim tizimi barchasi ingliz tilida olib boriladi. IELTS



testlarida yuqori natija ko'rsatmoqda, va buning natijasida yurtboshimiz tomonidan tashkil etilgan “El-yurt umidi” jamg'armasi yordamida yuqorida ta'kidlangan oliygohlarda o'qib kelishmoqda.

Inson faoliyati va uning davomiyligi moddiyat bilan chambarchas bog'liq. Kelajakda yaxshi yashash, orzulariga erishish, jamiyatda o'z o'rnini topishda til ahamiyatlidir. Chunki ishga qabul jarayonida, CV (rezyume)lar tanlovida muloqot qobiliyati, til sertifikatlari so'raladi. Shuningdek, ingliz tilini biladigan mutaxassislar yetishmasligi, bugunda bu sohaga talablarning borligi tayin. Chunki birinchi bo'lib, yangiliklar ham ingliz tilida ommaga yetkaziladi, xullas, ingliz tili “media va internet tiliga aylanib bormoqda. Shuningdek chet elda ishlash niyatingiz bo'lsa ham ingliz tilini o'rgansangiz, tez va oson ish topasiz, o'z haquqlaringizni himoya qila olasiz. Bu til bilgan xor bo'lmasligini anglatadi.

Tilni bilish insondagi dunyoqarashni o'zgartirmoqda. Masalan, ingliz tilini biladiganlar ham faqatgina til bilish bilan cheklanmagan, shu til madaniyatiga ham qiziqish paydo bo'lgan. Menimcha shu sababli ham ingliz madaniyati globallashuvda deb tushunaman. Sayohat qilishni xohlagan inson uchun til o'rganish — bu o'z kelajagi va xavfsizligi uchun tikilgan foydali sarmoyadir.

Xulosa qilib aytganda, til o'rganish shunchaki muloqot vositasi emas, balki insoniyatning yuksak cho'qqilarni zabt etishiga xizmat qiluvchi asosiy qurolidir. Tarixiy merosimiz va bugungi kun talablari shuni ko'rsatadiki, jahon tillarini, xususan, ingliz tilini egallash — dunyo ilm-fani, iqtisodiyoti va madaniyatiga integratsiya bo'lishning yagona yo'lidir. Zero, til bilgan inson nafaqat o'z shaxsiy manfaatlarini ko'zlaydi, balki o'z xalqi va davlatining salohiyatini xalqaro maydonda namoyon etish imkoniga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Muhammadjonov. O'zbekiston tarixi(7-sinf). Darslik. – “Sharq”. Toshkent:2017—91-97b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-may, PQ-5117-son.
3. Manba: LEX.UZ <https://share.google/4wmWqDYIJFVA2igsd>
4. Manba: president.uz <https://share.google/MgpMiLjNBeVklMB5d>
5. Manba: Wikipedia <https://share.google/WXxoINZjmqcNaaiR2>
6. Manba: Hasanboy.uz <https://share.google/7PWIEzDfdjxvdsbo>